

MAKTABDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING USLUBLARI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Azimova Nilufar Usmonaliyevna

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani MMTBga
qarashli 44-maktab amaliyotchi psixologi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabda ta'lim jarayonlarini boshqarish uslublari va uning ahamiyati haqidagi fikrlar keltirilgan

Kalit so'zlar: Maktab, uzluksiz ta'lim, ta'lim jarayoni, o'qituvchilar faoliyati, boshqaruv uslublari, liberal, demokratik, avtoritar, mas'uliyat.

Bugungi kunda ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vazifalarni amalga oshirish, ya'ni ta'lim tarbiya jarayonlari samaradorligini ta'minlash pedagogik jarayonlar ishtirokchilari hisoblangan ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar va boshqa mutaxassis xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zaruriyatini belgilaydi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etishning eng asosiy omillaridan biri bo'lgan pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashda mazkur jarayon ishtirokchilarining ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko'maklashuvchi jarayonlar hisoblangan ta'lim, mustaqil ta'lim, tarbiya, o'zini-o'zi tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

Zamonaviy ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda pedagog xodimlar tomonidan bajariladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo'nalishiga ko'ra boshqaruvning rejalashtirish va tashkil etish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi: - pedagogik jarayonlarni rejalashtirish; 19 - subyektlar (ta'lim oluvchilar) uchun zaruriy shartsharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda vazifalar taqsimlash; - subyektlar faoliyatini nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida rag'batlantirish. Shuningdek, pedagog xodimlar tomonidan pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, ularning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda faolligini ta'minlash va ta'lim olishga qiziqishini shakllantirishda motivlashtirish funksiyasi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda amalga oshiriladigan funksional shartli ravishda professional va ijtimoiy-psixologik funksiyalarga ajratish mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida subyektlarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki rag'batlantirish har bir ishtirokchi uchun talablar belgilash bilan birgalikda zamonaviy talablar darajasida ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda odatda, pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini takomillashtirish, innovatsion jarayonlarni kuchaytirish, ya'ni subyektlarning innovatsion faoliyatlarini tashkil etish, pedagogik jarayon subyektlarining ijodiy faolliklarini rivojlantirishda rag'batlantirish usulidan foydalaniladi. Demak, uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda pedagog xodimlar tomonidan ta'lim oluvchilarda ta'lim olishga qiziqishlar shakllantirish, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va samarali bajarishlariga undash, pedagogik jarayonlarda ularning faolligini ta'minlash yo'nalishlarida rahbarlik uslublarining turli jihatlaridan foydalanishlarini kuzatish mumkin. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda pedagog xodimlar tomonidan qo'llaniladigan uslublarni quyidagi omillarga asosan aniqlash mumkin: - pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilarning mustaqil va erkin fikrlashi, o'z fikri, g'oya va tushunchalarini erkin ifodalashi hamda vaziyatlarga ko'ra ularning faol ishtirok etish darajasi; - ta'lim oluvchilarning ilmiy-metodik mahsulotlar, topshiriqlarni bajarish yo'nalishidagi ko'rsatmalar hamda eng yangi, ilmiy asoslangan ma'lumotlar va axborotlar bilan ta'minlanishi; - pedagogik jarayonlarda barcha uchun qulay ta'limiy muhitni shakllanishi, ya'ni subyekt-subyekt munosabatlarini vujudga kelishi; - o'qituvchilar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llanilayotgan uslublar, ya'ni ta'lim oluvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarda ularning o'ziga xos yondashuvi. Rahbarlik uslublarini tasniflashda aksariyat mutaxassislar mazkur jarayonning bosh mezoni va tashkiliy tamoyili sifatida yakkaboshchilik bilan kollegiallik nisbatining ustuvorligiga e'tibor berishadi. Shundan kelib chiqib, rahbarlik uslublarining mazmun va mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

1. Avtoritar uslubda o'qituvchilar o'z irodasini ta'lim oluvchilarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqitish, jazolash va boshqa choratadbirlardan foydalanadi. Bu uslub bevosita buyruq va ko'rsatmalar berishga asoslanib/ ta'lim oluvchilarni so'zsiz bo'ysunishini nazarda tutadi, ya'ni pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilar erkinligi cheklanadi hamda faqat o'qituvchilar uzluksiz pedagogik jarayonning yagona subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning bevosita va erkin muloqotda bo'lishi chegaralab qo'yiladi. Bunday vaziyatda ta'lim oluvchilarning pedagogik jarayonga munosabatlari, ularning ehtiyojlari va manfaatlari e'tiborga olirilmaydi. Bu "ajratib tashla va hukmronlik qil" tamoyiliga asoslangan shafqatsizlarcha uslubdir. Bunday uslub garchi bir-muncha samarali bo'lsa ham, aslida, pedagogik jarayonlarda muxoliflik, norozilik kayfiyatini

shakllantiradi. Bunday uslub ta'sirida ta'lim oluvchilar o'z o'quv faoliyatidan qoniqmaydi, uning natijalariga qiziqmaydi va bular o'z navbatida pedagogik jarayonning samaradorligini pasayishiga sabab bo'ladi. Bunda mazkur uslubning turli xil shakli va usullari vujudga keladi:

2. Liberal (erkin ish yuritish) rahbarlik uslub o'qituvchilarning ta'lim oluvchilarga topshiriq va maslahatlarini tavsiflash ko'rinishida berishi, ta'lim oluvchilarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi. Bunda o'qituvchilar vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadi, pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilarga keng doirada mustaqillik, to'la erkinlik berish bilan bir qatorda, ularning harakatlariga kam e'tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi. O'z zimmasiga ma'suliyat olishni yoqtirmaydi, kelishuvchanlik asosida faoliyat ko'rsatadi, ya'ni ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlarni buzmaslik uchun ularning barcha talablarini bajaradi. Bu o'z o'rnida pedagogik jarayonlarda tartibsizlik vujudga kelishiga, ta'lim oluvchilarning xatti-harakati va o'quv faoliyati yo'nalishidagi nazoratning sustlashiga, ularning muayyan fanga bo'lgan qiziqishlarining yo'qolishiga olib keladi, shuningdek boshqa pedagogik jarayonlarda ham ta'lim oluvchilar faolligining susayishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu boshqaruv uslubining quyidagi usul va shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin: kommunikatsion raoyillik - bunda o'qituvchi ta'lim oluvchilarga turli xil savollarni berishi, o'z fikrlarini bildirishi uchun imkoniyatlar beradi, bu boshqaruvning maslahatli usuli bo'lib, ta'lim oluvchilar tomonidan berilgan takliflar, ularning fikrlari, ular tomonidan bajarilgan topshiriqlarning natijalari o'rganib chiqilishi sababli berilayotgan topshiriqlar ular tomonidan o'z vaqtida bajariladi; - hamkorlikda qabul qilingan qarorlar asosida boshqaruv - pedagogik jarayonlarda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish usullaridan keng foydalaniladi hamda o'qituvchilar muammoning yechimini topish uchun barcha ta'lim oluvchilarni jalb etadi va bunda muammoni yechish tartibini o'zi belgilaydi, shuningdek, o'zining barcha huquqlari va vakolatlarini saqlab qolgan holda ta'lim oluvchilar tomonidan muammoning yechimi bo'yicha qaror qabul qilinishiga ruxsat beradi.

3. Demokratik uslubda o'qituvchilar pedagogik jarayonning yagona subyekt sifatida faoliyat ko'rsatmaydi, ular o'z faoliyatini ta'lim oluvchilarga tayangan holda va ularning fikrini inobatga olish asosida, ya'ni pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilarning mustaqil va erkin fikrlashi, o'z qobiliyatlarini erkin namoyish etishlari, fikrlarini erkin bildirishlari uchun zamriy shart-sharoitlar yaratish orqali ularning faolligini ta'minlashga yo'naltiradi. Pedagogik jarayonlarda subyekt-subyekt (o'qituvchi va ta'lim oluvchi) munosabatlari shakllantirish asosida barcha uchun qulay ta'limiy muhitni vujudga keltiriladi. Mazkur uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatlarni rag'batlantirish bilan birgalikda ularning bildirgan fikriga quloq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tomonlarini inobatga olib rag'batlantirib boradi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va

boshqariladigan pedagogik jarayonlarda vaziyatlarga ko'ra boshqaruv uslublaridan oqilona foydalanishda o'qituvchilar 30 bilan ta'lim oluvchilarda bir-biriga nisbatan ishonch, o'zaro tushunish, do'stona munosabat hamda barcha uchun qulay ta'limiy muhit vujudga keladi. O'qituvchi o'zini pedagogik jarayonning bir ishtirokchisi sifatida tutadi, uning oldida har bir ta'lim oluvchi o'zini erkin his qiladi va mustaqil va erkin fikrlaydi hamda vujudga kelgan tashabbus, g'oya va fikrlarini bemalol ifodalaydi. Bunday uslubdan foydalanuvchi o'qituvchilar pedagogik jarayonlardagi tashabbuskorlikni rag'batlantiradi, barcha ta'lim oluvchilar bilan teng va samimiy munosabatda bo'ladi, o'z mavqei ustunligini bildirmaydi, hamkorlik uchun qulay vaziyatni yaratadi, ta'lim oluvchilarga erkin ishtirok etish imkonini beradi, ular tomonidan bildirilgan fikrlarga to'g'ri munosabatda bo'ladi hamda turli xil vaziyatlarni inobatga olgan holda unga mos yondashuvlarni amalga oshiradi. Shuning uchun ham pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchilarning muhim ahamiyat kasb etuvchi sifatlaridan bin turli xil uslublardan foydalana olishi, ya'ni vujudga kelayotgan turli vaziyatlarga ko'ra rahbarlik uslublaridan oqilona foydalana olish ko'nikmasining shakllanganligi hisoblanadi. Uzlüksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda o'qituvchilar u yoki bu rahbarlik uslubini tanlashda quyidagi qator omillarni hisobga olishi zarur: - vaziyat (stress, tinch aniqlanmagan). Masalan, vaqt vaziyatlarda avtoritar uslub o'zini oqlaydi; topshiriq (murakkabligiga ko'ra). Murakkab topshiriqlarni ta'lim oluvchilarga berishda ularning imkoniyatlari, qobiliyati va boshlang'ich tushunchalarini inobatga olish, topshiriqlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va bajarilish yo'nalishiga ko'ra davra suhbatlari tashkil etish hamda topshiriqlarni ta'lim oluvchilar tomonidan tanlab olinishiga imkoniyatlar yaratilishi kerak. Bunday 31 vaziyatlarda demokratik (kollegial) uslubdan foydalanish o'ziga xos ahamiyatga ega. - guruh (uning a'zolarining jinsi, yoshi, qobiliyati imkoniyatlari). Topshiriqlarning bajarilishiga qiziquvchi, o'zaro inoq (topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashuvni tatbiq etish imkoniyatlariga ega, izlanuvchan) guruhlar uchun demokratik yoki liberal uslubni tanlash maqsadga muvofiq. Uzlüksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda rahbarlik uslublaridan foydalanish ko'p darajali asoslarni qamrab oluvchi vaziyatlarga ko'ra o'zgaruvchan xususiyatlarga ega bo'ladi. Mazkur xususiyatlar uzlüksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarda vujudga keluvchi tez o'zgaruvchan vaziyatlarga ko'ra rahbarlik uslublarini o'zgartirib borish, pedagogik jarayon subyektlari faolligi, bilim, ko'nikma va malakalari darajasi hamda ehtiyojlarining rivojlanishi, shaxsiy manfaatlar bilan umumiy manfaatlarning uyg'unlashuvi va boshqa sabablar orqali ifodalanadi. Uzlüksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asoslarda samarali tashkil etish va boshqarish, belgilangan maqsadlarga erishish subyektlarning birgalikdagi samarali faoliyati, ya'ni hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishni hamda

hamkorlikdagi faoliyatni ma'lum bir izchilikda muvofiqlashtirish asosida takomillashtirishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. S.T. Turg'unov. L.A. Maqsudova. Va boshqalar: "Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari" Toshkent-2014
2. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5 4. Gafforov Ya.X. Toshtemirova. S. (2020). 3. Ways to increase the effectiveness of education in an integrated environment. International Journal of Current Research and Review. India. 5
3. Maktab va hayot jurnali. 2-son 2009-yil.